Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316942

asosda uning xarajatlari va moliyaviy natijalarini boshqarish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Korxona xarajatlari va foydasi tahlil qilinar ekan albatta ularning o'zgarishi atroflicha o'rganiladi. Bu borada korxonalarga "Tafovutlar tahlili" uslullaridan keng foydalanish va korxonalar uchun anashunday usulларn qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar yaratib berish ham tahlilchi olimlar olddida turgan asosiy masalalardan biridi. Aynan tafovutlar tahlili xarajatlar nazoratiga yo'naltirilgan va, demak, moliyaviy natijalarni optimallashtirishga qaratilgan. Tahlil jarayonida xarajatlar markazining xar bir bo'limi, maxsuloti yoki operatsiyasining xaqiqiy va rejalashtirilgan (me'yoriy) xarajatlarni solishtirish orqali ularni samarali boshqarish mumkin.

Xullas, korxonalarda "Moliyaviy ma'sulyat markazi"larini tashkil qilish xar bir ma'suliyat markazi bo'yicha xarajatlar, daromadlar va foyda xaqida mukammal ma'lumotlar olish, olingan ma'lumotlar asosida atroflicha tahlil o'tkazib, yuzaga kelayotgan tafovutlarni sabablarini o'rganish va salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ta'sirini bartaraf qilish imkonini beradi. Maxsulotlar miqdori va bahosini, doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar xajmini o'zgarishiga bog'liq xolda foyda va rentabellikni istiqbolli belgilash albatta korxona moliyaviy xolatini mustaxkamlash borasida katta imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qurbonov Z.N., Misirov K., Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –756 b
2. Assessment in Accounting: Concept and Tools Monograph General editorship Doctor of Economic Sciences, Professor O. Fomina December, 2018
3. ACCA Management Accounting (MA/FMA) Study Text: Published by: Kaplan Publishing UK Unit 2 The Business Centre Molly Millars Lane Wokingham Berkshire RG41 2QZ ISBN 978-1-78740-855-5 © Kaplan Financial Limited, 2021

QURILISH KORXONALARI HISOBOTINI MHXS ASOSIDA TUZISH VA TAQDIM ETISH.

Xolmatova Nodiraxon Quddusovna-
TDIU, Andijon fakulteti "Mutaxassislik fanlari" kafedrasi o'qituvchisi.
Jumaboyeva Mahliyo Mirzohid qizi-
TDIU, Andijon fakulteti BHA-61/23 guruh talabasi

Bugungi kunda respublikamizda har bir sohada rivojlanish ishlari hamda islohotlar olib borilmoqda, bu o'rinda qurilish sohasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Published: 17.05.2024
Cite this article: Xolmatova Nodiraxon Quddusovna, Jumaboyeva Mahliyo Mirzohid qizi (2024). Qurilish korxonalari hisobotini MHXS asosida tuzish va taqdim etish. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316942
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bu sohani takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta’minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar natijasida bunyodkorlik ko‘lamlari tobora kengayib bormoqda. Biz bunga misol qilib qurilish sohasi rivojlantirishning 2021-2025 yillargacha mo’ljallangan strategiyasini keltirishimiz mumkin. Shuni ham ta’kidlab o’tishimiz kerakki, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni (Respublika bo‘yicha) ham jadal ravishda o‘sib kelmoqda. 2020 yil 1 yanvar holatiga 22 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib bunday tashkilotlar soni 1,8 barobar o‘sib, 40,3 mingtaga yetdi. Bu esa o’z navbatida qurilish tashkilotlarida investitsiya jalb qilishga hamda hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etishga olib keladi. Bizga ma’lumki xalqaro moliyaviy hisobot standartlari qat'iy ravishda belgilangan qoidalarda emas, balki prinsiplarga asoslangan standartlardir. Bu esa o’z navbatida qurilish korxonalari hisob siyosatini MHXS asosida shakllantirishlari lozim bo’ladi. Ular hisob siyosatida qay usulda xom-ashyo materiallarini kirim qilishi va hisobdan chiqarish, daromadlarni qurilish ishlari yoppasiga tugagandan so‘ng, bosqichma-bosqich, qurilish navbatlari bo‘yicha tan olish va hisobga olish aniq ifodalangan bo’lishi lozim. Hamda qurilish ishlarining bir necha yillarga ncho‘zilib ketishi hisobot yilining oxirida tugallanmagan qurilishni inventarizatsiya qilish va qiymatini baholashni, shuningdek unga sarflangan xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlashni taqozo etadi. Shu sababdan qurilish tashkilotlari hisob siyosatida tugallanmagan qurilish hajmini inventarizatsiya qilib chiqish, uning qiymatini baholash tartibini aniq belgilashni talab qiladi. Qurilish ishlari bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirilishi buyurtmachi tashkilotlarning to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buyurtmachi korxonalar to‘lov qobiliyatini yo‘qotish riskining mavjudligi sabab qurilish tashkilotlarida dargumon debitorlik qarzlarni bevosita yoki tashkil qilinadigan maxsus rezerv evaziga hisobdan chiqarish usullaridan birini hisob siyosatida belgilab qo‘yishi lozimdir. Bajariladigan ishlar (xizmatlar) qurilish tashkilotlari bo‘linmalarida (qurilish maydonchalari, sexlar, omborlar va shunga o’xshash javobgarlik markazlarida) turli boshlang‘ich hujjatlarni tuzishni, ular aylanishini tashkil qilishni, shuningdek boshlang‘ich hujjatlar asosida tegishli hisob registrlarini yuritishni talab etadi. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishda xalqaro standartlarga asoslangan zamonaviy kompyuterli texnologiyalarga asoslangan hisob-kitoblardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’lardi. Bu dasturda pudratchi, mijoz, investor, joyida hisob- kitoblar tizimini o’z ichiga olishi lozim. Bu esa o’z navbatida:

- qurilish maydonchalarida qurilish-montaj ishlarini, xarajatlar, pudratchilarni hisobga olishi;
- buyurtmachi xarajatlar smetalari, bo'limlari, moliyalashtirish manbalari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirishi va hisobga olishi;
- qurilish loyihalari, qurilish obyektlari, qurilish xarajatlari moddalari, texnologik xarajatlar tarkibida qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishni hisobga olish;

- mahalliy smeta, mehnat va moddiy resurslar varaqasini tuzish, smeta bo'yicha marjinal daromadni hisoblash imkoniyati bilan qurilish-montaj ishlarining rejalashtirilgan qiymatini shakllantirish;

- uchinchi tomon pudratchilari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlarini alohida hisobga olish;

- hisob siyosatining parametrlariga qarab, qurilish loyihalari bo'yicha materiallarni Aveco yoki FIFO usuli bo'yicha hisobdan chiqarish;

- yordamchi mahsulot yordamida ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) ning hisobi;

- pudratchi tashkilotlar ishtirokida bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot berish;

-buyurtmachi tomonidan qurilish shartnomalarini amalga oshirishning qabul qilingan bosqichlari bo'yicha to'lovlarni nazorat qilish imkoniyati;

- qurilish obyektlari va saqlash joylari sharoitida jihozlar va qurilish materiallarini hisobga olish;

- uskunalar va materiallarni xarid qilish va saqlash xarajatlarini hisobga olish;

- pudratchidan pudratchiga qabul qilingan, pudratchining bosh pudrat xizmatlarining buyurtmachiga amalga oshirilishini aks ettirgan xizmatlarini hisobga olib, ularning hajmini qurilish-montaj ishlarining foizi sifatida ham, to'g'ridan-to'g'ri miqdorida ham hisoblash imkoniyati;

- qabul qilingan subpudrat ishlarini qurilish obyektlarida buyurtmachiga topshirishda qabul qilingan hujjatlardan foydalanish imkoniyati hisobga olingan holda hisobga olish;

-pudratchilarga materiallarni xom ashyo sifatida berish va sarf qilingan vaqtdan boshlab ularni hisobdan chiqarish kabi imkoniyatlarni beradi.

Dasturiy mahsulot qonun hujjatlariga muvofiq xodimlar va ma'muriyatning ishini sezilarli darajada yaxshilash, tashkilotning samaradorligini oshirish va tartibga solinadigan hisobotlarni tuzishni avtomatlashtirilgan holda taqdim etadi. 15-MHXS asosida daromadlarni va xarajatlarni hisobga olish orqali qilingan moliyaviy hisobotlar kompaniya rahbarlari va investorlar uchun juda muhim ma'lumotdir.

Shunday qilib, qurilish tashkilotlari buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dastur ishlab chiqilsa yuqorida sanab o'tilgan usullar hamda qurilish tashkilotlarining xarajatlarini hisobga olish va xom-ashyo materiallarni kirim qilish va hisobdan chiqarishga yordam beradi va ishning samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, qurilish korxonalari xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan hisob siyosatida barcha ma’lumotlar aniq ko’rsatilgan bo’lsa buxgalteriya hisobini yuritish ancha oson bo’ladi va bu maqsadga muvofiq bo’lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. 8-BHXS “Hisob siyosati, hisoblab chiqilgan baholardagi o’zgarishlar va xatolar”

2. 15-MHXS “Xaridorlar bilan shartnomalar bo’yicha tushum”, 2018-yil

3. Stat.uz 4. Ziyonet.uz 5. mc.uz